

Date: 27th November-2024

**IQTISODIY O'SISHNING MUSTAHKAM DRAYVERLARINI ANIQLASH:
O'ZBEKISTON MISOLIDA.**

Rustamova Feruza

Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti
M-24|QT yo'nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: O'zbekiston so'nggi yillarda iqtisodiy islohotlarni jadal amalga oshirayotgan mamlakatlardan biridir. Davlat rahbariyatining iqtisodiy siyosati iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun turli drayverlarni faollashtirishga qaratilgan. Ushbu maqolada drayverlarning asosiy yo'nalishlari va faktlarga asoslangan natijalari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: drayver, iqtisodiy, o'sish, islohotlar, tadbirkorlik, investitsiya.

Annotation: Uzbekistan is one of the countries that has been rapidly implementing economic reforms in recent years. The economic policy of the state leadership is aimed at activating various drivers to ensure economic growth. This article analyzes the main directions and fact-based results of drivers.

Keywords: driver, economic, growth, reform, entrepreneurship, investment.

Аннотация: Узбекистан-одна из стран, которая в последние годы активно проводит экономические реформы. Экономическая политика руководства государства направлена на активизацию различных драйверов экономического роста. В этой статье будут проанализированы основные направления движения и результаты, основанные на фактах.

Ключевые слова: драйвер, экономика, рост, реформы, предпринимательство, инвестиции.

Kirish

O'zbekiston iqtisodiyoti 2000-yillardan keyin tub o'zgarishlarga duch keldi. Davlat iqtisodiyotining mustahkam drayverlarini aniqlash va ularni rivojlantirish mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishiga xizmat qilmoqda. Maqsadli islohotlar, innovatsiyalar va tashqi savdo faoliyatining diversifikatsiyasi, shuningdek, davlat va xususiy sektorning o'zaro hamkorligi iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlovchi asosiy omillar sifatida chiqmoqda.

Iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlariga infrastruktura va transport tizimlarini rivojlantirish, qishloq xo'jaligini diversifikasiya qilish, energiya sektori va yashil texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot, investitsiyalar va tashqi savdo kiradi.

Infrastruktura va transport tizimlarini rivojlantirish. O'zbekistonning iqtisodiy o'sishi uchun infratuzilma – transport tarmog'ining rivojlanishi juda muhim. 2017-yildan boshlab, O'zbekiston temir yo'l va avtomobil yo'llari, aeroportlar, logistika markazlari kabi infratuzilma ob'ektlariga katta sarmoyalar kiritdi. Bu, nafaqat ichki bozorni rivojlantirish, balki tashqi savdoni rivojlantirish va tranzit davlat sifatida mamlakatni jahon iqtisodiyotiga integratsiya qilishga yordam bermoqda. Bu sohada amalga oshirilgan ishlar,

INTRODUCTION OF NEW INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN EDUCATION OF PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY.

International online conference.

Date: 27th November-2024



jumladan, Xitoydan Eron va Turkiyaga uzlusiz tranzit yo'llarini tashkil qilish, iqtisodiy o'sishning asosiy turki bo'lmoqda.

Qishloq xo'jaligini diversifikatsiya qilish. O'zbekistonning iqtisodiy drayverlaridan yana biri qishloq xo'jaligini diversifikatsiya qilishdir. Qishloq xo'jaligi va suv resurslaridan samarali foydalanish orqali ishlab chiqarish sohasining barqaror o'sishini ta'minlash mumkin. Bu jarayon nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, balki eksport imkoniyatlarini kengaytirish uchun ham zarur. 2023-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish hajmi oshdi, bu iqtisodiy o'sishga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Energiya sektori va yashil texnologiyalar. Yashil iqtisodiyot va energetika sohasida amalga oshirilgan islohotlar ham iqtisodiy o'sishning mustahkam drayverlariga aylanmoqda. O'zbekiston hukumatining maqsadi qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish va energiya samaradorligini oshirishdir. 2020-yilga kelib, mamlakatda quyosh va shamol energiyasini ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish bo'yicha jiddiy sarmoyalarni kiritildi. Bu texnologiyalar nafaqat ichki energiya ta'minotini barqarorlashtirish, balki tashqi bozorlarda eksport qilish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Raqamli iqtisodiyot. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi O'zbekistonning iqtisodiy o'sishining muhim omillaridan biridir. Yangi texnologiyalar va internet xizmatlarini kengaytirish orqali biznesning samaradorligini oshirish, davlat xizmatlarini onlayn tarzda ko'rsatish, shuningdek, fintech va IT startaplarining rivojlanishi iqtisodiy o'sishga turki bo'lmoqda. 2023-yilda O'zbekiston davlat tizimida raqamli xizmatlarning soni va sifatini oshirish bo'yicha katta islohotlarni amalga oshirdi

Investitsiyalar va tashqi savdo. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va tashqi savdoning rivojlanishi O'zbekiston iqtisodiyotining mustahkam drayverlaridan biridir. 2023-yilda investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshdi, jumladan, Xitoy, Turkiya va Rossiya kabi davlatlar bilan savdo va sarmoyaviy aloqalar kengaydi. Tashqi savdo hajmi 50 milliard AQSh dollaridan oshdi, bu mamlakatning eksport imkoniyatlarini kengaytirishga yordam berdi.

O'zbekiston so'nggi yillarda iqtisodiy islohotlarni jadal amalga oshirayotgan mamlakatlardan biridir. Davlat rahbariyatining iqtisodiy siyosati iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun turli drayverlarni faollashtirishga qaratilgan.

Quyida ushbu drayverlarning asosiy yo'nalishlari va faktlarga asoslangan natijalari tahsil qilinadi.

O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni ta'minlashda xususiy sektorning o'rni ortib bormoqda. So'nggi yillarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qator islohotlar qabul qilindi:

- 2023-yilda "Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash agentligi" tashkil etildi, bu orqali davlat kichik va o'rta biznesga subsidiyalar ajratishni kuchaytirdi.
- Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun soliqlarning maqbullashtirilishi va yangi soliq kodeksi joriy etilishi xususiy sektorning faolligini oshirdi. Natijada, 2023-yilda O'zbekistonda xususiy sektor hissasi yalpi ichki mahsulotda (YAIM) 62% ga etdi.

INTRODUCTION OF NEW INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN EDUCATION OF PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY.

International online conference.

Date: 27th November-2024

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish juda muhimdir. Chunki Xorijiy investitsiyalar mamlakat iqtisodiyotining o'sishida muhim rol o'ynamoqda.

- O'zbekiston 2022-yilda \$10 milliard miqdorida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qildi, bu esa 2021-yilga nisbatan 20% ko‘pdir.

- Xorijiy investorlarga erkin iqtisodiy zonalar va soliq imtiyozlari taklif qilinmoqda. “Angren” va “Navoiy” erkin iqtisodiy zonalari buning yaqqol misolidir.

Undan tashqari O'zbekiston raqamli texnologiyalarni joriy qilish orqali iqtisodiy o'sishning yangi drayverlarini rivojlantirmoqda.

- “Elektron hukumat” tizimi yordamida biznes jarayonlarini avtomatlashirish va ma'muriy to‘sislarni kamaytirish orqali xususiy sektorni rivojlantirishga hissa qo‘shildi.

- IT-parklar tashkil etilishi 2023-yilda IT-xizmatlar eksportini \$200 millionga yetkazdi, bu esa 2022-yilga nisbatan ikki baravar ko‘pdir.

Qishloq xo‘jaligi modernizatsiyasi Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotning asosiy sohalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

- Paxta va g‘alla monopoliyasini bekor qilish orqali fermerlarning daromadlari oshirildi.

- 2023-yilda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti \$6 milliardga yetdi, bu esa 2021-yilga nisbatan 18% o'sishni anglatadi. Ta'lif va sog‘lijni saqlash sohalariga sarmoya kiritish iqtisodiy o'sishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

- Maktab va oliy ta'lif muassasalariga ajratilgan mablag‘lar 2023-yilda YAIMning 6,2% ini tashkil etdi.

- Kasb-hunar markazlari tarmog‘i orqali malakali ishchi kuchini tayyorlash iqtisodiyotning turli sohalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirdi.

O'zbekistonning iqtisodiy o'sishini tahlil qilishda 2023-yil uchun bir qator muhim statistik ko‘rsatkichlarni ko‘rib chiqish muhimdir. Quyida ayrim asosiy ko‘rsatkichlar keltirilgan:

Yalpi ichki mahsulot (YaIM): 2023-yilda O'zbekiston YaIM hajmi o'sish sur'ati 5,6 foizga baholangan bo‘lib, bu rivojlanayotgan davlatlar o'rtasida barqaror iqtisodiy o'sish natijasidir. Mamlakat iqtisodiy siyosati qishloq xo‘jaligi, sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalarini diversifikatsiya qilishga qaratilgan (Statistika qo‘mitasi ma'lumotlariga ko‘ra).

Davlat budgeti: 2023-yilda konsolidatsiyalashgan davlat budgetining taqchilligi 32,5 trillion so‘mni tashkil qilgan, bu esa YaIMga nisbatan 3 foizni tashkil etadi. Davlat qarzlarining oshib ketmasligi uchun budgetni qattiq nazorat qilish choralarini ko‘rilgan (Gazeta.uz).

Investitsiyalar va tashqi savdo: 2023-yilda investitsiyalarning o'sishi davom etib, jumladan, qishloq xo‘jaligi va infratuzilma rivojlantirish loyihamalariga e'tibor kuchaytirilgan. Tashqi savdo hajmi 50 milliard AQSh dollaridan oshib, eksportning asosiy qismi energetika, kimyo sanoati, va to‘qimachilik mahsulotlariga to‘g‘ri kelmoqda (Davlat statistika qo‘mitasi).

Demografik o'sish va mehnat bozori: Aholi soni 36,4 milliondan oshib, ishchi kuchi resurslarini kengaytirish iqtisodiyotning o'sishi uchun muhim drayver bo‘lib xizmat

INTRODUCTION OF NEW INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN EDUCATION OF PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY.

International online conference.

Date: 27th November-2024

qilmoqda. Shuningdek, kichik biznesni rivojlantirish orqali yangi ish o'rirlari yaratilmoqda.

Mazkur ko'rsatkichlar O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishi ijobjiy yo'nalishda ekanini ko'rsatadi. Bu raqamlar diversifikatsiyalangan iqtisodiy model va investitsiyalarni faol jalg qilish orqali barqaror rivojlanishni ta'minlashga yo'naltirilgan siyosatning natijasi hisoblanadi.

Xulosa.

O'zbekiston iqtisodiy o'sishining asosiy drayverlari sifatida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, qishloq xo'jaligini diversifikasiya qilish, xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash va yashil texnologiyalarga asoslangan energetika sohasini kengaytirish keltirilmoqda. Ushbu yo'nalishlar iqtisodiy barqarorlik va o'sishning uzoq muddatli istiqbollarini ta'minlaydi.

Tavsiyalar.

O'zbekiston iqtisodiy drayverlarining samaradorligini oshirish uchun:

- Innovatsiyaga asoslangan rivojlanish strategiyalarini qo'llash;
- Xususiy sektorga sarmoya jalg qilishni rag'batlantirish;
- Transport va logistika imkoniyatlarini yanada kengaytirish;
- Ta'lim va kadrlar tayyorlashga e'tiborni kuchaytirish lozim.

Bu yondashuvlar mamlakatni mintaqaviy iqtisodiy markaz sifatida mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Gazeta.uz

Manba: 2023-yil davlat budjeti va iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari haqida ma'lumotlar.

Havola: Gazeta.uz - O'zbekiston yangiliklari

2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

www.stat.uz

3. Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi

www.invest.gov.uz

4. Juhon banki va xalqaro tashkilotlar hisobotlari

www.worldbank.org

5. Kun.uz va Spot.uz yangilik portallari

www.Kun.uz, www.Spot.uz

